## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDI RAISINING

# F A R M O Y I S H I

2024-yil «26» iyul                                                  8-son

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi faoliyati ochiqligini ta’minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–6247-sonli va 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–154-sonli farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining 2024-yil 17-maydagi “Oliy sudning ochiqlikni ta’minlash yo‘nalishidagi faoliyatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi”da belgilangan vazifalar ijrosini samarali ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunining 30-moddasiga asosan:

**F A R M O Y I S H   B E R A M A N:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–6247-sonli (bundan buyon matnda PF–6247-sonli Farmon deb yuritiladi) va 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–154-sonli (bundan buyon matnda PF–154-sonli Farmon deb yuritiladi) farmonlari ijrosini o‘z vaqtida tashkil etish hamda monitoring qilib borish bo‘yicha ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. PF–6247-sonli Farmon bilan tasdiqlangan Ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar ro‘yxati va ularning e’lon qilinishi uchun mas’ul tarkibiy tuzilmalar 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. PF–154-sonli Farmon bilan tasdiqlangan baholash mezonlarining indikatorlari ijrosi yuzasidan mas’ul xodimlar ro‘yxati 3-ilovaga ko‘ra tasdiqlansin.

4. Belgilab qo‘yilsinki:

Tuzilmalarning mas’ul xodimlari ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlarni Oliy sudning rasmiy veb-saytida belgilangan muddatlarda e’lon qilinishini ta’minlasin.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va axborot xavfsizligini ta’minlash boshqarmasi mas’ul tarkibiy tuzilmalar tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni o‘z vaqtida Oliy sudning rasmiy veb-saytiga joylashtirish choralarini ko‘rsin.

Ishchi guruhi ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlarni Oliy sudning rasmiy veb-saytida o‘z vaqtida e’lon qilinishini nazorat qilsin.

Har yarim yilda ishchi guruhi tomonidan ochiqlikni ta’minlash sohasida amalga oshirilgan ishlar, rejalashtirilgan loyihalar va chora-tadbirlar ijrosi muhokama qilinsin.

5. Ushbu farmoyish qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining 2021-yil 9-iyuldagi 305-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur farmoyishning bajarilishini ta’minlash Oliy sud raisining o‘rinbosari I.Muslimov zimmasiga yuklansin.

**Oliy sud raisi** **B.Islamov**

Oliy sud raisining 2024 yil 26 -iyuldagi
8 -sonli farmoyishiga 1-ilova

**Ishchi guruhi tarkibi**

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1. | Xolmaxmatov Abduxalim | – | Oliy sud apparati rahbari, **Ishchi guruh rahbari;** |
| 2. | Ismoilov Otabek Abduraxmon o‘g‘li | – | Odil sudlov sohasidagi qonunchilikni tahlil qilish departamenti boshlig‘I; |
| 3. | Abidov Aziz Agzamovich | – | Jamotchilik bilan hamkorlik markazi boshlig‘i; |
| 4. | Xodjamuratov Sultanmurat Atamaxsimovich | – | Murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig‘i; |
| 5. | Umarov Jasur Majidovich | – | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va axborot xavfsizligini ta’minlash boshqarmasi boshlig‘i; |
| 6. | Muxitdinov Muzaffar Raxmatulllo o‘g‘li | – | Kadrlar boshqarmasi boshlig‘i; |
| 7. | Qodirov Murodullo Ibodulloyevich | – | Ishlar boshqarmasi boshlig’i; |
| 8. | Toshev Yigitali Boboqulovich | – | Sudlar faoliyatini ta’minlash departamenti direktori o’rinbosari; |
| 9. | Malikov Farruxxon Farxadovich | – | Xalqaro-huquiy bo‘lim boshlig’I; |
| 10. | Bektashov Xudaynazar Jumanazarovich | – | Bosh buxgalter; |
| 11. | Abdurazaqov Xumoyun Nozim o‘g‘li | – | Jamoatchilik bilan hamkorlik markazi katta konsultanti. |

Oliy sud raisining
2024-yil 26 iyuldagi 8-sonli
farmoyishiga 2-ilova

**Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar**
**RO'YXATI**

| T/r | Axborotning turi, toifalar nomlanishi (parametrlar) | Taqdim etish va yangilash muddati | Joylashtirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilmalar |
|---|---|---|---|
| 1. | Oliy sudning o'z faoliyatiga oid hisoboti (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno). | har yili 1-martga qadar | Tashkiliy-nazorat boshqarmasi<br>Jamoatchilik bilan aloqalar markazi |
| 2. | Davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan davlat xaridlarini amalga oshiruvchi shaxslar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar). | har chorakda | Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti<br>Ishlar boshqarmasi<br>Buxgalteriya |
| 3. | Oliy sud mansabdor shaxslarining xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari (xizmat safarining yoki tashrifning maqsadi, sutkalik pul, transport va yashash bilan bog'liq xarajatlar (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno). | har chorakda | Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti<br>Ishlar boshqarmasi<br>Xalqaro-huquqiy aloqalar bo'limi<br>Buxgalteriya |
| 4. | Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari hisobiga xarid qilinishi rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to'g'risidagi ma'lumotlar (xarid e'lon qilinishidan kamida 6 oy oldin). | doimiy ravishda | Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti<br>Ishlar boshqarmasi<br>Buxgalteriya |
| 5. | Davlat xaridlari va investitsiya loyihalari doirasida hamda ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish bo'yicha tashkil etiladigan xarid komissiyalarining tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan:<br>xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash haqidagi qaror; | doimiy ravishda | Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti<br>Ishlar boshqarmasi<br>Buxgalteriya |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | xarid komissiyasi a'zolarining ma'lumotlari (familiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi). | | |
| 6. | Tasdiqlangan yillik xarajatlar smetasi bilan bir qatorda, uning ijrosi, shu jumladan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlari, avtomototransport vositalarini sotib olish va saqlash xarajatlari to'g'risidagi va boshqa ma'lumotlar. | har chorakda | Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti<br>Ishlar boshqarmasi<br>Buxgalteriya |
| 7. | Oliy sud tasarrufidagi xizmat avtomototransport vositalari, xizmat uylari va boshqa ko'chmas mulklar, qurilishi tugallanmagan obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar (tezkor-qidiruv, harbiy va boshqa maxsus xizmatlarda foydalaniladigan ashyolar bundan mustasno). | har chorakda | Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti<br>Ishlar boshqarmasi<br>Buxgalteriya |
| 8. | Oliy sudning tasdiqlangan yarim yillik va (yoki) yillik ish rejalari (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno). | har yarim yillikda (har yili) | Tashkiliy-nazorat boshqarmasi |
| 9. | Oliy sudga doimiy foydalanish uchun berilgan yer maydonlari va boshqa mol-mulklarni davlat-xususiy sheriklik asosida olgan yuridik va jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar. | har chorakda | Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti<br>Ishlar boshqarmasi<br>Buxgalteriya |
| 10. | Oliy sudning tashqi yoki ishonchli boshqaruvga berilgan davlat ulushi mavjud bo'lgan xo'jalik jamiyatlari, ishonchli boshqaruvchi tomonidan jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar. | har chorakda | Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti<br>Ishlar boshqarmasi<br>Buxgalteriya |
| 11. | Oliy sudning tarkibiga kiruvchi davlat muassasalarining nomi, faoliyat turi, funksiya va vakolatlari hamda rahbarlari to'g'risidagi ma'lumotlar. | har chorakda | Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti<br>Ishlar boshqarmasi<br>Buxgalteriya |
| 12. | Oliy sudda davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini belgilovchi xarid komissiyasining ichki idoraviy tartibi (nizom, reglament, yo'riqnoma yoki boshqa ichki idoraviy hujjat) | har chorakda | Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti<br>Ishlar boshqarmasi<br>Buxgalteriya |
| 13. | Bo'sh ish o'rinlari (markaziy, hududiy va tizim tashkilotlarida), ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo'yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar. | har oyda | Kadrlar boshqarmasi |

<table>
<tr><td rowspan="3">14.</td><td rowspan="3">Oliy sud tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarga taqdim etilgan grant va ijtimoiy buyurtma loyihalari haqidagi ma’lumotlar, shu jumladan g‘olib bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ularning buyurtma doirasida bajargan ishlari yuzasidan hisobotlari haqidagi ma’lumotlar.</td><td rowspan="3">har yarim yillikda</td><td>Sudlar faoliyatini ta’minlash departamenti</td></tr>
<tr><td>Ishlar boshqarmasi</td></tr>
<tr><td>Buxgalteriya</td></tr>
</table>

Oliy sud raisining
2024-yil 26 iyuldagi 8-sonli
farmoyishiga 3-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–154-son Farmoni bilan tasdiqlangan baholash mezonlarining indikatorlari ijrosi yuzasidan mas’ul xodimlar**

| T/r | Baholash mezonlarining indikatorlari | Indikator bo‘yicha ijrochi tuzilma | Indikator bo‘yicha mas’ul xodim |
|---|---|---|---|
| **Davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlikni ta’minlashga mas’ul bo‘lgan xodimlar faoliyatining samaradorligi** | | | |
| 1.1. | Matbuot anjumanlari, brifinglar, press-turlar, taqdimotlar hamda boshqa tadbirlar (tadbirlar) soni | Jamoatchilik bilan hamkorlik markazi | X.Abdurazaqov |
| 1.2. | Ijtimoiy tarmoqlarda onlayn translyatsiyalar soni | | |
| 1.3. | Matbuot anjumanlari, brifinglar va boshqa tadbirlarda rahbarlarning ishtiroki | | |
| 1.4. | Axborotni yetkazib berish shakli | | |
| 1.5. | Axborotning qamrovi | | |
| 1.6. | Sohaga oid muammolarni yoritish | | |
| 1.7. | Tanqidiy materiallarga munosabat bildirishning tezkorligi | | |
| 1.8. | Tadbirlar haqidagi axborotlarning rasmiy veb-sayt, messenjer va ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilinishi tezkorligi | | |
| 1.9. | Rahbar yoki axborot xizmati rahbarining muayyan axborot voqeligi munosabati bilan rasmiy bayonot berishi | | |
| 1.10. | Xorijiy ommaviy axborot vositalarida materiallar e’lon qilinishi | | |
| **Davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlarida axborotlarni joylashtirish va elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish holati** | | | |
| 2.1. | Qayta aloqa tizimining samarali yo‘lga qo‘yilganlik darajasi | Murojaatlar boshqarmasi | N.Komilov |
| | | AKT | K.Madrahimov |
| 2.2. | Sudlar faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni e’lon qilish darajasi | Qonunchilik departamenti | A.G‘oibov |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2.3. | Ichki idoraviy hujjatlarni e'lon qilish darajasi | Kadrlar boshqarmasi | S.Xidirov |
| 2.4. | Sudlar faoliyatiga oid o'z kuchini yo'qotgan normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi | Qonunchilik departamenti | A.G'oibov |
| 2.5. | Tasdiqlangan dasturlar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi | Tashkiliy-nazorat boshqarmasi | Sh.Kattayev |
| 2.6. | Ommaviy tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi | Xalqaro-huquqiy aloqalar bo'limi | N.Erkinov |
| | | Jamoatchilik bilan hamkorlik markazi | X.Abdurazaqov |
| 2.7. | Bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi | Kadrlar boshqarmasi | S.Ibadullayev |
| 2.8. | Sudlar faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi | Qonunchilik departamenti | A.G'oibov |
| 2.9. | Muvofiqlashtiruvchi va maslahat organlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi | Kadrlar boshqarmasi | S.Xidirov |
| 2.10. | Davlat organlari va tashkilotlari hamda ularning hududiy tuzilmalari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi | Kadrlar boshqarmasi | J.Jo'rayev |
| | | Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti | Y.Toshev |
| 2.11. | Idoraviy bo'ysunuvdagi tashkilotlarning veb-saytiga havolalar mavjudligi | AKT | K.Madrahimov |
| 2.12. | Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinishi | Murojaatlar boshqarmasi | N.Komilov |
| 2.13. | Murojaatlarning umumlashtirilgan natijalarini e'lon qilib borish darajasi | | |
| 2.14. | Boshqa rasmiy veb-saytlar va Hukumat portaliga havolalarning mavjudligi | AKT | K.Madrahimov |
| 2.15. | Dolzarb mavzularga oid ma'lumotlar to'plamining alohida bo'limga tizimlashtirilishi | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2.16. | Matbuot xizmati va veb-sayt uchun mas'ul bo'lgan xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligi | AKT | K.Madrahimov |
| | | Jamoatchilik bilan hamkorlik markazi | X.Abdurazaqov |
| 2.17. | Ma'lumotlarni boshqa tillarga sinxronlash funktsiyalarining mavjudligi | AKT | K.Madrahimov |
| 2.18. | Rasmiy veb-saytning mobil versiyasi mavjudligi | | |
| 2.19. | Yangi ma'lumotlar bilan interaktiv usulda tanishish imkoni mavjudligi | | |
| 2.20. | Jamoatchilik fikrini o'rganish vositalarining joriy etilganligi | Tashkiliy-nazorat boshqarmasi | S.Beshimov |
| | | Murojaatlar boshqarmasi | N.Komilov |
| | | AKT | K.Madrahimov |
| 2.21. | Veb-saytda ma'lumotlarni qidirishning soddalashtirilgan usullari mavjudligi | AKT | K.Madrahimov |
| 2.22. | Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun veb-saytdan foydalanish qulayligi | | |
| 2.23. | Ko'rish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun veb-saytdan foydalanish qulayligi | | |
| 2.24. | Axborotlarning sanasini ko'rsatish tartibiga rioya qilinishi | | |
| 2.25. | "Onlayn maslahatchi" xizmatining tashkil etilganligi | AKT | K.Madrahimov |
| | | Murojaatlar boshqarmasi | N.Komilov |
| **Ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni qonunchilikda belgilangan axborot resurslarida e'lon qilish va jamoatchilik oldida hisobdorlik tizimining yo'lga qo'yilishi** | | | |
| 3.1. | O'z faoliyatiga oid hisobotlarni e'lon qilish holati | Tashkiliy-nazorat boshqarmasi | O.Rajabov |
| 3.2. | Hisobotlarni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish joyi va vaqti haqidagi ma'lumotlarni e'lon qilish | Jamoatchilik bilan hamkorlik markazi | X.Abdurazaqov |
| 3.3. | Hisobotlarni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish holati | Jamoatchilik bilan hamkorlik markazi | X.Abdurazaqov |

<table>
<tr><td>3.4.</td><td>Tasdiqlangan ish rejalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning e’lon qilinishi</td><td rowspan="2">Tashkiliy-nazorat boshqarmasi</td><td rowspan="2">Sh.Kattayev</td></tr>
<tr><td>3.5.</td><td>Hisobot (hay’at) yig‘ilishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning e’lon qilinishi</td></tr>
<tr><td>3.6.</td><td>Mansabdor shaxslarning xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning e’lon qilinishi</td><td rowspan="9">Sudlar faoliyatini ta’minlash departamenti,<br><br>Ishlar boshqarmasi,<br><br>Buxgalteriya</td><td rowspan="9">Y.Toshev<br><br>H.Nazarov<br><br>X.Bektashov</td></tr>
<tr><td>3.7.</td><td>Avtomototransport vositalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning e’lon qilinishi</td></tr>
<tr><td>3.8.</td><td>Xizmat uylari va boshqa ko‘chmas mulklar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning e’lon qilinishi</td></tr>
<tr><td>3.9.</td><td>Xarajatlar smetasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning e’lon qilinishi</td></tr>
<tr><td>3.10.</td><td>Byudjet hamda byudjetdan tashqari jamg‘armalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning e’lon qilinishi</td></tr>
<tr><td>3.11.</td><td>Davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning e’lon qilinishi</td></tr>
<tr><td>3.12.</td><td>Davlat xaridini rejalashtirish to‘g‘risidagi ma’lumotlarning e’lon qilinishi</td></tr>
<tr><td>3.13.</td><td>Xarid komissiyasi tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning e’lon qilinishi</td></tr>
<tr><td>3.14.</td><td>Davlat xaridlarini amalga oshirishga oid tartib-taomillar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning e’lon qilinishi</td></tr>
<tr><td>3.15.</td><td>Ochiqlik sohasini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning e’lon qilinishi</td><td rowspan="2">Tashkiliy-nazorat boshqarmasi</td><td rowspan="2">S.Beshimov</td></tr>
<tr><td>3.16.</td><td>O‘zini o‘zi baholash tartibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning e’lon qilinishi</td></tr>
<tr><td>3.17.</td><td>Ochiqlik sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning e’lon qilinishi</td><td>Murojaatlar boshqarmasi</td><td>N.Komilov</td></tr>
</table>

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3.18. | Ochiqlikni ta'minlash sohasida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi | Tashkiliy-nazorat boshqarmasi | S.Beshimov |
| 3.19. | Ochiqlikni ta'minlash bo'yicha onlayn so'rovnoma o'tkazish blokining tashkil etilganligi | | |
| 3.20. | Ochiq ma'lumotlar to'plamini pasportlash tartibining joriy etilganligi | Tashkiliy-nazorat boshqarmasi,<br><br>AKT | S.Beshimov<br><br>K.Madrahimov |
| 3.21. | Ochiq ma'lumotlar to'plami va qayta aloqa samaradorligini baholash tizimining joriy etilganligi | | |
| **Byudjet jarayonining ochiqligini ta'minlashga oid ma'lumotlarning rasmiy veb-saytda joylashtirilishi** | | | |
| 4.1. | Mablag'lar taqsimoti to'g'risidagi ma'lumotning e'lon qilinishi | Ishlar boshqarmasi,<br><br>Sudlar faoliyatini ta'minlash Departamenti,<br><br>Buxgalteriya | Y.Toshev<br><br>H.Nazarov<br><br>X.Bektashov |
| 4.2. | Kapital qo'yilmalar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi | | |
| 4.3. | Davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi | | |
| 4.4. | Asosiy vositalarning xarid qilinishi to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi | | |
| 4.5. | Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarning xaridi to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi | | |
| 4.6. | Qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash ishlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi | | |
| **Ochiq ma'lumotlar portalida ma'lumotlar joylashtirilishi** | | | |
| 5.1. | Ochiq ma'lumotlar portalida ma'lumotlar to'plamining e'lon qilinishi | Tashkiliy-nazorat boshqarmasi | O.Rajabov |
| 5.2. | Ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar to'plamining e'lon qilinishi | | |
| 5.3. | Geopozitsiyaga bog'langan ochiq ma'lumotlar to'plamining ulushi | Tashkiliy-nazorat boshqarmasi,<br><br>AKT | O.Rajabov<br><br>K.Madrahimov |
| 5.4. | Elektron hukumat yagona identifikatorlariga bog'langan ochiq ma'lumotlarning soni | | |
| 5.5. | Ochiq ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan mobil ilovalar soni | AKT | K.Madrahimov |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Ommaviy kommunikatsiya texnologiyalarining joriy qilinishi** | | | |
| 6.1. | Qayta aloqaning tashkil etilganligi | AKT,<br><br>Murojaatlar boshqarmasi | K.Madrahimov<br><br>N.Komilov |
| 6.2. | Murojaat yo'llashning interaktiv usullari tashkil etilganligi | | |
| 6.3. | Foydalanuvchilar bilan kommunikatsiya tarmog'i orqali muloqot qilish tizimi yo'lga qo'yilganligi | | |
| 6.4. | Rahbar bilan bevosita muloqot qilish tizimining tashkil etilganligi | | |
| **Korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishda ochiqlik tamoyillaridan foydalanish holati** | | | |
| 7.1. | Korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishga doir ichki idoraviy hujjatlarning ochiq e'lon qilinishi | Kadrlar boshqarmasi | J.Jo'rayev |
| 7.2. | Korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan alohida aloqa kanallari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi | | |
| 7.3. | Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda Korrupsiyaviy holatlarning oldini olish tizimi joriy etilganligi | | |
| 7.4. | Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik munosabatini belgilovchi hujjatlarni e'lon qilish darajasi | | |
| 7.5. | Manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqida jamoatchilik oldida hisobdorlik tizimining joriy etilganligi | | |
| 7.6. | Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularning oldini olish choralarini ko'rish va natijalari haqida hisobdorlik tizimi yo'lga qo'yilganligi | | |
| 7.7. | Xodimlarning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki tartib-taomillaridan xabardorligi hamda sohadagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi | | |
| 7.8. | Keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida o'tkazilgan press-tadbirlarni (matbuot anjumanlari, brifing, seminar, trening, davra suhbati, taqdimot, muhokama va boshqa tadbirlar) e'lon qilish darajasi | Jamoatchilik bilan hamkorlik markazi | X.Abdurazaqov |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 7.9. | Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish borasida tayyorlangan targ'ibot materiallarini (slayd, rolik, ma'ruza matnlari, maqola, buklet, risola va boshqalar) e'lon qilish darajasi | Kadrlar boshqarmasi | J.Jo'rayev |